

7-SHO‘BA: KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARING RAQAMLI SAVODXONLIGI

KREDIT-MODUL TA’LIM TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Najiyeva Sojida Nasridinovna
O ‘zbekiston, SamDChTI Innovatsion ta‘lim texnologiyasi
va pedagogikasi kafedrasи o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishidan maqsad o‘qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish borasida fikrlar boradi.

Kalit so‘zlar: Kredit-modul, pedagog, psixolog, ijod, oila, talaba, mustaqil ta’lim, muammo, o‘quv, bilim, ko‘nikma, tadqiqot, axborot manbalar, doklad, texnologiya.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье целью самостоятельной работы учащихся является формирование и развитие знаний и умений, необходимых для самостоятельного выполнения определенных учебных задач под руководством и контролем преподавателя.

Ключевые слова: кредитный модуль, педагог, психолог, творчество, семья, студент, самостоятельное обучение, проблема, учеба, знание, умение, исследование, источники информации, документ, технология.

SPECIFIC ASPECTS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE EDUCATION SYSTEM

Abstract: In this article, the purpose of the independent work of students is to form and develop the knowledge and skills necessary to independently perform certain educational tasks under the guidance and control of the teacher.

Key words: credit module, pedagogue, psychologist, creativity, family, student, independent education, problem, study, knowledge, skill, research, information sources, document, technology.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini amalga oshirishning birinchi bosqichida o‘quv topshiriqlarini qurish qoidalari quyidagilardan iborat:

topshiriqlar o‘quv-pedagogik yoki haqiqiy pedagogik vaziyatlar bilan bog’liq muammolarga ega bo‘lishi kerak;

o‘quv topshirig‘i asosini tashkil etuvchi muammoni hal etish tushunchalarini yuzaga keltiruvchi aqliy faoliyatni turli usullar yordamida amalga oshirishni ko‘zda tutadi;

topshiriqlar tushunchalar mazmunida aks ettirilgan hodisalar o‘rtasidagi muhim bog’liqlikni ob’ektiv ravishda ko‘rsatishi kerak;

topshiriqlar isbotini aniqlash va talabalar ongida hodisalar o‘rtasida mustahkam bog’liqliqni mustahkamlash asosida tushunchalarni yuzaga keltirish imkoniyatlarini ko‘zda tutishi lozim;

topshiriqlarni bajarishning yaxlit ifodalangan yoki ifodasi topshiriq shartlarini tashkil etuvchi bir necha oddiy tushunchalardan sub’ekt tomonidan hali o‘zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini beradi;

topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar yoki sub’ektga ma’lum bo‘lmagan tushunchalar bilan yoki bir-biri bilan, taqqoslanadi;

tushunchalarni taqqoslashda sub’ekt fikrlashning turli: tahlil, sintez, solishtirish, taqqoslash va shu kabi amallarini bajaradi;

muammoni hal etishda yaqqol bo‘lmasa-da, biroq boshlang‘ich tushunchalar o‘rtasidagi juda muhim bog’liqliklar ochib beriladi;

yangi tushunchalar shakllantiriladi va uning tarkibiga o‘zgartirilgan oddiy tushunchalar kiradi;

topshiriqni bajarishda sub’ekt quyidagi amallarni bajaradi: tushunchalarning shakl va mazmunini o‘zgartirmasdan qayta ishlab chiqadi; tushunchalar shaklini o‘zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi; ilgari o‘zlashtirilgan tushunchalardan rasmiy-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanib, ularni qayta o‘zgartiradi; nazariy fikrlash asosida yangi tushunchalar shakllanadi.

Talabalarning mustaqil bilim olishida maqsad, tamoyil, usul, metod, vosita va shartlarni aniq ko‘rsatish zarur hamda ularni amalga oshirish so‘zsiz dastlab tanlangan va ko‘rsatilgan natijaga olib keladi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish sabablari bir-biri bilan bog’liqidir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik talabani mustaqil bilim olishdan har qanday boshqa sabablardan ko‘ra ko‘proq ko‘nglini sovutadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammmolarni hal etishni ko‘zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo‘yish muammosi alohida ajralib turadi. Agar ta’lim olish umumiyl rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi esa —kasbiy shakllanish yoki kasbiy malakani rivojlantirish hisoblanadi.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarda: a) sababiy-tashkiliy (o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishning qadriyatli yo‘nalishlari, bilim, malaka va ko‘nikmalari); b) mazmunli-protsessual (o‘quv faoliyatining mohiyatini bilish bu faoliyat muvaffaqiyatli bo‘lishini belgilovchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish); v) tekshirish-baholash (mustaqil bilim olishda zarur sanalgan shaxsiy sifatlarni o‘zi baholash) kabi ko‘nikmalarining shakllanishi mustaqil bilim olish jarayonida majmuaviy ravishda shakllanib boradi.

Mustaqil ish faoliyatida bilimlarni egallash bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak:

a) mustaqil ish - o'qishniig, aqliy mehnatning alohida turi.

b) axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengaydi.

Ta'lif berishning an'anaviy usullari orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash, faollikka o'rgatish qiyin. An'anaviy ta'lifda tushuntirish, so'rash, mustahkamlash, baholash tartibiga amal qilinadi.

Bugungi o'tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi uchun o'tilganlarni o'z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o'rganishi zarur. Chunki ma'ruzada talabalarga yo'llamma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo'lmaydi. Uning iloji yo'q, maruzada o'tilgan, muhokama qilingan masalalarini psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko'ra, atigi 5 foizi talabalar yodida qolar ekan. O'zi o'qib o'rgangan, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishi esa bir necha baravar ko'p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabalarning o'zini mustaqil tayyorlanib o'qishi fanni o'rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o'zlashtirishida, tahlil qilishi, o'z fikrini ifodalashida muhim rol o'ynaydi.

Talabalarning mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Talabalarning mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi: - yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

axborot manbalaridan samarali foydalanish;

an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishslash;

elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishslash;

internet tarmog'idan samarali foydalanish;

berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;

ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamiliklarni qayta ishslash.

ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

O'quv muassasalarida maxsus fanlardan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va uni boshqarishda o'qituvchining vazifasi quyidagilardan iborat:

-maxsus fanlardan tashkil etiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda sinfdan tashqari ishlarda talabalarni mustaqil ishslashga o'rgatish;

-mustaqil ishlarni talabalar guruhi bilan yoki individual holda tashkil etish;

- mustaqil ishlar va topshiriqlarni bajarishga oid uslubiy ko'rsatmalar va tarqatma materiallar ishlab chiqish, talabalarga yordam ko'rsatish hamda maslahatlar berish;

- mustaqil ishlarning bajarilishini nazorat qilish va baholash.

Maxsus fanlardan tashkil etiladigan mustaqil ishlarning maqsadi talabada kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlashga o'rgatish. Talaba mustaqil ishslash malakasiga ega bo'lganidan keyin to'garaklar, konkurslar, olimpiadalar, seminarlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarga faol ishtirok etiladi.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqilli va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganlarimizdek, talaba mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlichcha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni talabalar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni talabaning o'zi tashkil qiladi. Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashda talabaga yordam lozim.

Mustaqil ishni bajarish uchun talaba o'zini-o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham sub'ektiv omil asosiy o'rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiyl printsiplar mavjud. Mustaqil ishni shu printsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar printsiplarni o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas. Mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

1. Mustaqil ishni bajarishni tashkil qilishning asosiy printsipi uning muntazamligidir. Har bir talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo'yicha tabaqlashtirgan holda rejalashtirishi kerak. Undan kelib chiqib, talaba o'z haftalik rejasini kunlar bo'yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda talabaga hech narsa bermayotganday, hech qanaqa yordami yo'qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, a'lochi talabalar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

2. Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17-25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishslash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o'tiradigan

bo‘lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog‘i yozilishi qiyin bo‘lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda auditoriyada o‘tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo‘ladigan bo‘lsa, mustaqil ishslash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo‘lsa 3 soatdan ko‘proq, agarda ko‘p bo‘lsa kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, haftalik mustaqil ish bajarish vaqt 22-24 soat atrofida bo‘ladi. Albatta, bu vaqt talabani normal tarzda diqqat-e’tibor, g’ayrat qilib ishslashini mo‘ljallangan holda belgilanadi. Lekin real hayotda bir talaba o‘zini zo‘rlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o‘rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchinchisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning hususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;

Prezident asarlari va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag’ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;

seminar va amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;

berilgan mavzular bo‘yicha referat, axborot tayyorlash;

o‘rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;

hisob, grafik ishlarini bajarish;

nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash;

amaliyotdagи mavjud muammolarning echimini topish;

maket, model va namunalar yaratish;

ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma’ruza gezis-larini tayyorlash;

ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy mavzularda bo‘lib o‘tadigan ilmiy, amaliy konferentsiya, seminar mashg’ulotlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularda qatnashish;

turli jamg’armalar tomonidan tashkil qilingan tanlovlarda ishtirot etish;

o‘rganilayotgan fan bo‘yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ishlar tarkibida talabalardan alohida diqqat, e’tibor bilan ishslashni talab qiladigan mustaqil ish o‘rganilayotgan fandan kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor.

O‘qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri iqtisodiy masalalarga bag’ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o‘quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. Konspekt qilish - talabani fanni o‘zlashtirish uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to‘g’ridan-to‘g’ri ko‘chirish deb tushunmasliklari kerak.

Mustaqil ta’limning asosiy shakllari.

Oliy o‘quv yurtlarida keng qo‘llaniladigan mustaqil ishlarning bir turi dokladdir. Dokladga:

- 1) majlis ahli uchun mo‘ljallangan muayyan mavzudagi axborot, maruza;
- 2) talabalarning mustaqil ish turi;
- 3) ilmiy ish turi sifatida qarash mumkin.

Talabalar dokladni mustaqil ish turi sifatida seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Dokladni adabiyotlarni o‘rganib, tanlangan mavzuga chuqr yondashib, o‘z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Doklad tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishslash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish, o‘z fikrini yozma ravishda ifodalashga o‘rganadi.

Referat, doklad yozish uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirishi kerak. Tanlab olingen mavzuni yoritish uchun kirish, 3-4 savol qo‘yiladi va xulosa beriladi. Dalillar, statistik ma’lumotlar to‘planadi. Tahlil qilinayotgan masala bo‘yicha mavjud fikrlar, qarashlar bayon qilinadi. Talaba ularga o‘z nuqtai nazarini bildiradi.

Ilmiy doklad haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ko‘p jihatdan kurs ishiga qo‘yilgan talablar bilan bir xil va shu tartibda yoziladi. Faqat ilmiy doklad tanlangan mavzuni kurs ishiga qaraganda ham chuqurroq o‘rganish, dalillar, statistik ma’lumotlar to‘plash, ular asosida zarur iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni tahlil qilish xulosa chiqarish hamda o‘z takliflarini bayon qilish bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kognitiv - ya’ni bilishning eng yuqori - baholash darajasida fikr yuritiladi.

Ilmiy doklad yozish qattiq mantiqiy izchillikni, sabr-toqat, tirishqoqlikni talab qiladi.

Talabalarning fanlardan mustaqil ishini muhim tarkibiy qismi sifatida referat yozish borgan sari keng tadbiq etilmoqda. Referat talabalarning ilmiy ish yozishi, tadqiqot o‘tkazishini dastlabki shakli sifatida ko‘rish mumkin

Referat (lotincha refero- axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o‘qilgan kitob, maqola kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og’zaki bayoni, o‘rganilgan ilmiy masalaniig natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o‘z ichiga olgan ma’lum mavzudagi doklad.

Referat odatda, ilmiy axborot vazifasini o‘taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkii. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi referatlar keng tarqalgan. Odatda talabalarning seminar mashg’ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham referat deyiladi.

Referat yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishslashni, statistik ma’lumotlar va boshqa materiallarni to‘plash, ularni qayta ishslash, ya’ni hisob kitob qilish, tahlil qilish, o‘rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog’lashni o‘rganadi.

Referat mustaqil yozilib, uni yozish qoidalalariga amal qilinsa, darslik bo‘yicha savolga tayyorlanib kelib, semiar darslarda so‘zga chiqishga qaraganda katta foyda beradi. Talaba referatda bildirgan o‘z fikrini auditoriya oldida himoya qila

olishi kerak. Referat yozish formal bo'lsa kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun o'qituvchining rahbarligi katta rol o'ynaydi. Referatlarga qay darajada talab qo'yiladi, shunga ko'ra uni muvaffaqiyatli qo'llash mumkin yoki aksincha.

Shunday qilib, referat, kurs ishi, ilmiy doklad, bir tomondan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o'z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasasa, ikkinchi tomondan, ularni yanada yangi ishlarga rag'batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishi, o'z faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o'z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og'zaki, ham yozma ravishda bayon qilishga o'rgatadi.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining tarkibiy qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Ma'lumki talabalar o'zlarining ilmiy qiziqishlari va tadqiqot mavzulari bo'yicha zarur materiallarni tanlab olish va mustaqil o'rganish, o'z bilim doirasini kengaytirish, ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida kitoblar, jurnallar, ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami bilan tanishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PF-5847-son 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b
4. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -Toshkent: O'zbekistonNMIU, 2019. -400 b.
5. Abdikuddusov O. A. Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent, 2009-238 b.
6. Abduvohitov A., Azizxo'jayev A., Aminov M., Daminov T., vab. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 6-jild. Milliy-nashir. Tahrirhay'ati: - Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy, 2003. -704- b.
7. Avliyoqulov N. H. Pedagogicheskaya texnologiya - Toshkent: Aloqachi, 2009-148 b
8. Avlyaqulov N. X., Musaeva N. N. Pedagogiktexnologiya. Toshkent: ChomponNMIU-2012,-208- b.